

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA KAFEDRASI
SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA TEXNIKASI
faniniag

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi	300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi	310 000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi	60310400 – Sotsiologiya

Toshkent – 2025

aloqasi. Protsedura texnik usul va operatsiyalar ketma-ketligini mantiqiy tuzilishi sifatida.

2-mavzu. Sotsiologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari

Sotsiologik tadqiqot" tushunchasi, sotsiologik bilish tizimida uning funksiyalari. Sotsiologik tadqiqotlarning amaliy qo'llanishi. Sotsiologik tadqiqot bosqichlari to'g'risidagi turli qarashlar. Tayyorlov bosqichi; dala ishlari; ma'lumotlarni qayta ishlash; hisobot yozish. Asosiy harakat turlari: tadqiqot dasturini tayyorlash, ma'lumotlar yig'ish, ma'lumotlar tahlili. Sotsiologik tadqiqotlarning tasniflash mezonlari va asosiy turlari. Sotsiologiya fanining 3 o'zaro bog'langan darajalari: 1) umumotsiologik nazariya va metodologiya. 2) Maxsus sotsiologik nazariyalar. 3) Empirik sotsiologik tadqiqotlar. Sotsiologik tadqiqotning 4 bosqichi: 1) tadqiqotni tayyorlash; 2) birlamchi ma'lumotlar yig'ish; 3) ma'lumotlarni qayta ishlash; 4) ma'lumotlar tahlili, hisobot.

3-mavzu. Sotsiologik tadqiqotlarning turkumlanishi

Sotsiologik tadqiqotlarning 3 asosiy turlari: I. Razvedkali tadqiqotlar. Foydalanish sohasi, asosiy vazifalari. Ekspress tadqiqot razvedkali tadqiqotning turi sifatida. Jamoatchilik fikrining vazifalari. Tadqiqotning bu turida ma'lumotlar yig'ish metodlari. II. Tasvirllovchi tadqiqotlar. Uni qo'llash sohalari tasvirllovchi tadqiqot dasturi. Tahlil obyekti. Tasvirllovchi tadqiqotda ma'lumotlar yig'ish metodlarini tanlash. Turli metodlarni hisobga olish. III. Analitik tadqiqotlar. Analitik tadqiqotning maqsadi. Amaliy ahamiyati. Analitik tadqiqotlarni tayyorlash. Sotsiologik ma'lumotlar yig'ishning kompleks xarakteri. Ekspertiment analitik tadqiqotning turifatida. Ekspertiment o'tkazishning metodik xususiyatlari.

4-mavzu. Sotsiologiya tadqiqotlarida miqdoriy va sifatli strategiyalar

Miqdoriy va sifatli tadqiqot metodlari. Miqdoriy va sifatli tadqiqotlar mohiyati va tafovut. Miqdoriy o'lchov va sifatli o'lchov stragiyalari. Nuqtali tadqiqot. Qayta o'tkaziladigan tadqiqotlar. Longityud tadqiqot. Kogortali tadqiqot. Trend tadqiqot. Panel tadqiqotlar. Monitoring.

5-mavzu. Sotsiologik tadqiqot dasturi

Dastur sotsiologik tadqiqotning asosiy xujjati sifatida. Dastur yangi sotsial bilim olishning yo'llari, yondashuvlarini nazariy ishlab chiqish sifatida. Dastur tushunchasi, sotsiologik tadqiqotda uning o'imi va ahamiyati. Dastur vazifalari: metodologik, metodik, bashoratga oid, tashkiliy-texnologik. Dastur mazmuni: sotsiologik tadqiqotning metodologik, metodik, tashkiliy rejas. Tadqiqotning 2 turi va ularga mos keladigan dasturlar: 1) nazariy-amaliy, 2) amaliy. Dastur tuzishning qat'iy qo'yilgan bosqichlari

6-mavzu. Sotsiologik tadqiqot dasturining tarkibiy elementlari

Sotsiologik tadqiqot dasturi strukturali: nazariy-metodologik va tashkiliy-metodik (protsedurali) qism. Dasturning nazariy-metodologik qismi. Nazariy-metodologik qism bosqichlari: I. Muammo qo'yish va uni asoslash, II. Tadqiqot maqsad va vazifalarini aniqlash, III. tadqiqot obyekti va predmetini aniqlash, IV. Asosiy tushunchalarni aniqlash va ularning interpretatsiyasi. V. Obyektni oldindan tizimli tahlil qilish. VI. Ishchi faraz (gipoteza)ni ilgari

Fan/modul kodi	Fan/modul turi	Ta'lim tili	Ishlab chiqilgan o'quv yili						
STM1318	ma'buliy	o'zbek	2025/2026						
Semestr	Har bir semestrda fan/modulning nomi	Haftalik dars soatlari	ECTS - Kreditlar	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Jami yuklama (soat)
				Jami: ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya	Mustaqil ta'lim (soat)	
3	Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi va texnikasi	6	4	60	20	20	-	120	180
4	Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi va texnikasi	6	4	60	20	20	-	120	180
5	Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi va texnikasi	6	6	90	30	30	-	90	180
	Jami:			210				330	540

2. I. Fanning mazmuni

Sotsiologik so'rovlarisiz zamonaviy hayotni tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda ular har bir soha xodimlari tomonidan. amalga oshirilmoqda. Sotsiologik tadqiqot-o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon to'g'risida ularni keyinchalik. amaliyotda o'rganish uchun ob'ektiv, ishonchli ma'lumotlarni olishning yagona maqsadi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan mantiqiy ketma-ket uslubiy, uslubiy va tashkiliy-texnik protseduralar tizimi.

Ushbu fani boshqa ijtimoiy fanlardan nafaqat o'zining ob'ekti va predmeti bilan, balki konkret empirik tadqiqot metodlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu esa olingan ma'lumotlarning ishonchli, va ob'ektiv bo'lishiga zamin yaratadi. «Sotsiologik tadqiqotlarning metodologiyasi va texnikasi» fani talabalarga sotsiologik bilimning empirik metodlari, metodologiyasi asosida konkret sotsiologik tadqiqot o'tkazish bilim, ko'nikma va malakalarini singdirish uchun xizmat qiladi

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

3 semestr

1-mavzu. Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi, texnikasi va protsedurali

Sotsiologik tadqiqot jarayonining asosiy tushunchalari: metodologiya, metodika, texnika, protsedura. Tadqiqot metodologiyasi va metodini aniqlash, ularning o'xshashligi va farqlari. Metod va metodologiya tushunchalarining

15/04

surish. Dasturning tashkiliy-metodik qismi: Ketma-ket va tashkiliy harakatlarni asoslash. Tadqiqotning strategik plani (rejas). Kuzatish birliklarni tanlash tizimini asoslash. Ma'lumotlar yig'ish va olingan natijalarni tahlil qilish protseduralarini tanlash. Tanlash (tanlash) hajmi va xarakteri. Tadqiqotning obyekti va predmetiga qarab sotsiologik ma'lumotlar yig'ish metodlarini tanlash.

7-mavzu. Sotsiologik tadqiqot muammosi va strategik rejasini asoslash

Sotsial jarayonlar dinamikasini o'rganish va sotsial qarama-qarshiliklarni yechish zaruriyati – amaliy sotsiologik tadqiqot rivojining asosi sifatida. Sotsial muammo turlari va muammoli vaziyat belgilari. Sotsial muammoni tadqiqot muammosi sifatida konseptual asoslash – sotsiologik tadqiqot dasturi tuzishning asosiy vazifasi. Tadqiqot dasturida muammoni asoslashning xususiyatlari. “Tadqiqotning strategik rejasini” tushunchasi sotsial muammoni ilmiy konseptualizatsiya qilish darajasining ifodasi sifatida. Tadqiqot strategik rejasining tarkibiy elementlari va turlari

8-mavzu. Sotsiologik tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad va vazifalarini belgilash

Tadqiqot obyekti va predmetini chegaralash (obyektning asosiy belgilarini ajratish, muammoni tahlil etishning dastlabki tushunchalarini aniqlash) – asoslashning dastlabki bosqichi sifatida. Tadqiqot maqsadi va vazifalarini belgilashda tadqiqot muammosini asoslashning ahamiyati. Asosiy va yordamchi vazifalar. Tadqiqot muammosi turlari va sotsiologik tadqiqot dasturida ularni formallashtirish yo'llari. Izlanuvchi, tasviriy, analitik, eksperimental tadqiqotlarda sotsiologik muammoni asoslashning o'ziga xos tomonlari

4 SEMESTR

1-mavzu. Sotsiologik tadqiqotda gipotezalar

Gipotezalarni ilgari surish protsedurasini. Gipotezalar tasnifi. Tasviriy, tushuntiruvchi, genetik gipotezalar. Asos-gipoteza va oqibat-gipoteza. Gipotezalar tuzishga qo'yiladigan asosiy talablar. Tadqiqot gipotezasi bilan vazifalari o'rtasidagi o'zaro aloqa. Asoslanganlik, mantiqiy mutanosiblik va muqobillik tamoyillari. Gipotezalarni tekshirishni rejalashtirish va uning keyingi tadqiqot protseduralarini ishlab chiqishdagi o'rni.

2-mavzu. Asosiy tushunchalar interpretatsiyasi va operatsionalizatsiyasi

Tadqiqotning konseptual modelidan tadqiqotning predmetli sohalarini tasvirlashga o'tish. Ilgari surilgan gipotezalardan natijalarni bilish va ularni tekshirish uchun empirik referentlarni izlash. Konseptual modelning mantiqiy tahlili, asosiy tushunchalar interpretatsiyasi. Tayanch tushunchalar bilan tadqiqotning predmetiga tegishli bo'lgan empirik indikatorlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniqlash.

3-mavzu. Sotsiologik tadqiqotda shkalalar

Shkala-o'ichov etaloni. O'lchash etalonlarini izlash. Birlamchi o'lchov protsedurasining tekshirishda ishonchlilik usullari. Shkalalarning umumiy

tasnifi. Oddiy nominal shkala. Qisman tartiblangan nominal shkala. Tartiblangan shkala, teng intervalli metrik shkala. Proporsional baholangan shkala. L. Guttman shkalasida bir yo'nalishli kontinuumni izlash (tartiblangan nominal shkala). Tyorstunning teng intervalli shkalasida berilgan punktarni tanlab olishda sudyalardan foydalanish. Birlamchi sotsial tasniflarni belgilashda to'rtta cheklangan kvantifikatsiya.

4-mavzu. Sotsial yo'nalishlarni o'lchash metodlari

“Sotsial yonalishlar” tushunchasi, sotsiologik tadqiqotda uni ta'riflashning xususiyatlari. Sotsial yo'nalishlarni o'rganish ommaviy harakatlarni bashorat qilishni shakllantirish zaminini sifatida. Sotsial yo'nalishlar qadriyatli tabiati va ularni tasniflash tamoyillari. Terminal va instrumental qadriyatlar. Sotsial yo'nalishlarni amaliy sotsiologiya metodlari – shkalalar yordamida tadqiq etish. O'z-o'zini baholash shkalasi, uning tuzilishi, qo'llash imkoniyatlari. Juftli taqqoslash metodi, uning mohiyati, “sotsial distansiyalar”ni o'lchashda undan foydalanish. Bogardus shkalasi, uning tuzilishi va qo'llash imkoniyatlari. M.Rokichning qadriyatlar yo'nalishlarni tadqiq etish metodikasi. V.Yadovning shaxsiy dispositsiyalar tizimini tahlil qilishi.

5-mavzu. Ma'lumotlarni jadval va grafik ko'rinishda taqdim etish

Ma'lumotlarni jadvallarga tushirish. Jadvallarni tahrirlash texnikasi. Ma'lumotlarni grafik tarzida taqdim etish. Birlamchi ma'lumotlarni grafik chizmalar va organayzerlarga tushirish.

6-mavzu. Sotsiologik tadqiqotda tanlash metodi

Sotsiologiyada tanlash metodini qo'llashning xususiyatlari. Tanlash metodining mohiyati. Tanlashni amalga oshirish bilan bog'liq tushunchalar: umumiy va tanlanma majmua, tanlash birliklari, tahlil birliklari, dispersiya. Tanlashni tashkil etish tamoyillari. Tanlash metodini qo'llashning shartlari. Tanlashni tuzishning asosiy metodlari: ehtimolli tanlash metodi va qat'iy bo'lmagan tasodifiy metodlar. Sotsiologik tadqiqotlarda tanlashlarning matematik tahlili.

7-mavzu. Ehtimolli tanlash metodlari

Oddiy tasodifiy, sistematik, seriyali; ko'p bosqichli, kombinatsiyalangan, ko'p fazali; stratifikatsiyali va uyali. Qat'iy bo'lmagan tasodifiy metodlarga asoslangan tanlash turlari: maqsadli, kvotali, stixiyali va boshqa. Tanlash ko'lamini. Proporsional va noproportsional tanlash.

5 SEMESTR

1-mavzu. Ma'lumotlar yig'ish metodlarining umumiy tasnifi

Tadqiqotning maqsad va vazifalariga ko'ra ma'lumotlar yig'ish metodlarini tanlash. Ma'lumotlar yig'ish metodlarini umumiy tasnifi. Adabiyotlar, hujjatlar, birlamchi ma'lumotlar tahlili. Aksiologik; biografik; kuzatish; ekspert baholash; so'rov; afzaliklarni bilish; kross-madaniy taqqoslash; monografik; juftli taqqoslash metodlari

2-Mavzu. Hujjatlarni tahlil qilish metodi. Hujjatlarni tahlil qilish protsedurasi

Hujjatlar sotsiologik ma'lumotlarning eng muhim manbai sifatida. Sotsiologiyada hujjat tushunchasi. Hujjatlar tasnifi: ma'lumotlarni qayd etilishiga ko'ra; ma'lumotlarni olish usuliga ko'ra; mualliflik xarakteriga ko'ra; ma'lumotlarga "yaqinlik" darajasiga ko'ra. Yozma hujjatlar: davlat va markaziy arxivlar; tashkilot va korxona arxivlari; hisobot statistikalar; ilmiy nashrlar; matbuot; shaxsiy hujjatlar; empirik ma'lumotlar arxivi. Ikonografik hujjatlar (kino-video va fotohujjatlar). Fonetik hujjatlar. Sotsiologik tadqiqotlarda hujjatlarni tahlil qilish metodidan foydalanishning ustunlik va kamchilik tomonlari.

An'anaviy (klassik) formallashtirilgan (miqdoriy, kontent-analiz). Hujjatlarni tahlil qilishning an'anaviy usullarining umumiy tavsiflari: matnlarning ko'p qirraligi, hujjatlar mazmuni va yaratish maqsadlari; mazmunni sharhlash va obyektivlik. Hujjatlarni klassik tahlil qilish turlari. Hujjatlarni tahlil qilish metodi bilan boshqa birlamchi ma'lumotlar to'plash metodlari o'rtasidagi nisbat. Hujjatlarni ichki va tashqi tahlil qilish. Huquqiy va psixologik tahlil

3-Mavzu. Kontent-tahlil metodi

Kontent analiz hujjatlarni formal tahlil qilish vositasi sifatida. Sotsiologik tadqiqotda bu metoddan foydalanish imkoniyatlari. Hujjatlarni formal tahlil qilishning metodologik masalalari. Hujjatlar tili muammosi.

Kontent-analiz mohiyati, uning umumiy tavsifi, kuchli va kuchsiz tomonlari. Semantik, sintaksis, pragmatik va miqdoriy tahlil. Kontent-analiz texnikasi. "Mazmun birligi", "kuzatish birligi", "o'lchash (hisob-kitob) birligi" tushunchalari. Mazmun birliklarini loyihalashtirish usullari. Kontent-analizi amalga oshirish metodikasi. Hujjatlarni tanlash va hujjat tipidagi ma'lumotlarning sifati. Jamoatchilik fikrini o'rganishda kontent-analiz metodlaridan foydalanishning afzalliklari

4-Mavzu. Kuzatish metodi

Ijtimoiy fanlarda kuzatish metodi. Kuzatish metodining mazmun mohiyati. Ilmiy kuzatishning alohida belgilari. Sotsiologik kuzatish xususiyatlari

5-Mavzu. Kuzatishning tashkiliy protsedurasi

Kuzatish turlari. Rasmiylashtirilgan kuzatish. Ichki va tashqi kuzatish. Ichki anonim kuzatish. Kuzatish metodining yutug'i va kamchiliklari. Kuzatish metodida kuzatuvchining roli.

6-Mavzu. So'rov metodi

So'rov tushunchasi. So'rov ma'lumotlarining sifatiy mezonlari. O'lehov instrumentining ilmiy asoslanganligi: 1) relevantlik, 2) betaraflik (obyektivlik), 3) kira olishlik, 4) farqlantiruvchi qobiliyat. So'rovning asosiy bosqichlari: 1-bosqich adaptatsiya (razvedka, mashq, zondaj), 2-bosqich qo'yilgan maqsadga erishish (asosiy ma'lumotlar yig'ish), 3-bosqich so'rovni tugatish. So'rov ko'rinishlari: o'zaro ta'sirning xarakteriga ko'ra (anketa orqali va intervyu), o'tkazish joyiga ko'ra (yashash joyi yok ish joyi), tadqiqotchi bilan respondent o'rtasidagi muloqot vositasiga ko'ra (matbuot, pochta, yakkama-yakka suhbat, telefon). So'rovning turli turlarining ustunlik va kamchilik tomonlari.

7-Mavzu Anketa (so'rov varaqasi) orqali so'rov o'tkazish

So'rov varaqasi orqali so'rov o'tkazish spetsifikasi birlamchi sotsiologik ma'lumotlar yig'ish metodi sifatida. Anketa so'rovning turli ko'rinishlari. Anketa so'rovning ustunlik va kamchiliklari. Anketa so'rov bosqichlari va protseduralari. Sotsiologik so'rov varaqasi (anketa) so'rovning asosiy instrumenti sifatida. So'rov varaqasining mantiqiy va tashkiliy tuzilishi, uni loyihalashtirishning asosiy tamoyillari va qoidalari. Kirish qismining o'rni va ahamiyati: tadqiqot maqsadlarini tushuntirish, javob berish qoidasini bayon etish, anonim xarakterda ekanligini kafolatlash.

8-Mavzu Anketa (so'rov varaqasi) tuzish

So'rovning faza va bosqichlariga ko'ra savollarning ketma-ketlik tamoyili. Savollarning joylantirish mantiqi. Savollarni qo'yish texnikasi. Anketa respondent xarakteriga mos kelishi. Savol shakllarini tanlash mezonlari. Savollar mazmuni. Faktlar haqidagi savollar. Bilim haqidagi savollar. Nuqtai-nazar, yo'l-yo'riq, hatti-harakat motivlari haqidagi savollar. Bilimni aniqlash uchun ishlatiladigan savollar. Yopiq, ochiq, yarim ochiq yoki yarim yopiq savollarni tuzish. Ochiq savollarni qayta ishlash. Anketa savollarning turli turi va ko'rinishlarini joylashtirish tamoyili. Maqsadiga ko'ra savol turlari: mazmunli (yoki natijali) va funktsional. Funktsional-psixologik savollar. Filtir savollar. Nazorat savollar. Ochiq va yopiq savollar (dixotomik, trixotomik, alternativ va "menyu-savol"). Dialog-savollar. Illyustratsiya savollari. Shkalali savollar

9-Mavzu. Pochta va telefon orqali so'rov o'tkazish

Pochta orqali so'rov o'tkazish anketa so'rovning bir ko'rinishi sifatida. Uning ustunlik va kamchiliklari. Pochta orqali so'rov o'tkazishning metodik-tashkiliy vazifalari va uning instrumentariysi – pochta so'rov varaqasini ishlab chiqish. Pochta so'rov varaqasining o'ziga xosligi: mazmunini oddiyligi, savol va javoblar tuzishning qisqa va lo'ndaligi.

Pochta orqali so'rov o'tkazishda tanlashning o'ziga xosligi. Pochta so'rov o'tkazish orqali olingan ma'lumotlarning ishonchlilik muammosi. Javoblarni olish va uni bartaraf etish muammolari. So'rov varaqalarini qaytarilishini oshirish usullari: eslatma yuborish, mukofot taklif etish, qo'shimcha xat jo'natish va boshqalar. So'rov varaqasi orqali so'rov o'tkazishda uchraydigan xato va qiyinchiliklar.

10-Mavzu. Ekspert-so'rovi

Ekspert-so'rov metodologiyasi. Ekspert so'rov turlari. Ekspertlarni tanlash. Ekspert baholari validligi omillari. Ekspert so'rovi metodini qo'llash murakkabliklari. Ekspert so'rovi natijalarini rasmiylashtirish talablari

11-Mavzu. Intervyu sotsiologik so'rov metodi sifatida

Intervyu sotsial informatsiya yig'ishning o'ziga xos metodi sifatida. Intervyuning so'rov varaqasi (anketa) orqali so'rov o'tkazishdan umumiy farqi. Sotsiologik va jurnalistik intervyuning xarakterli xususiyatlari. Intervyu tasniflari: maqsad va vazifalariga ko'ra (terapevtik, sotsiologik, jurnalistik), texnikasiga ko'ra (fokuslashgan, fokuslashmagan, ochiq, yopiq); protsedurasiga ko'ra (direktiv, nodirektiv, formallashtirilgan, erkin); respondentlarning xarakteriga ko'ra (guruhiy, yakk).

12-Mavzu. Intervyu o'tkazish protsedurasi Intervyu o'tkazishda ma'lumotlar erkin intervyu o'tkazish usullarini ishlab chiqish uchun nazariy-metodologik asos sifatida. Intervyu mobaynida semantik noaniqlikni bartaraf etish vositalari. Intervyu sotsiologik bilan respondent sotsiologik o'zaro munosabatining jarayoni sifatida. Suhbat yo'nalishining texnik usullari va respondentni javob berishga undash. "Intervyuyer ta'siri" Intervyu usuli orqali olingan ma'lumotlarni qayd etish, qayta ishlash va tahlil qilish xususiyatlari. 13-Mavzu. Fokus-guruh metodi Fokus-guruh metodining metodologik asoslari. Guruhli intervyu metodining shakllanishi. Guruhlar bilan eksperimental ishlash an'anasi. R. Merton bo'yicha fokuslashgan intervyu va fokus-guruh. Guruh sotsium modeli sifatida. Fokus-guruh va ichki kuzatuv. Fokus-guruh va individual chuqurlashtirilgan intervyu. Fokus-guruh va kontent-tahlil. Fokus-guruh maqsadlarining ilgari surilishi. Tadqiqot chegaralarini belgilash. 14-Mavzu. Fokus-guruhlarni tashkil etish va o'tkazish Fokus-guruhlarni shakllantirishning umumiy tamoyillari. Ishirokchilar soni. Ishirokchilar tarkibining gamogenligi. Fokus-guruhda ishtirokni cheklash. Guruhlar soni. Fokus-guruhlarni tashkil etish va fokus-guruh natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish. Fokus-guruh natijalarini qayd etish usullari. Fokus-guruh natijalarini rasmiylashtirish tartibi. Fokus-guruhlarda xonani jihozlash. Ishirokni ta'minlash. Fokus-guruh ishtirokchilarni tanlash mezonlari. Fokus-guruhli munozaralarni rejalashtirish. Fokus-guruhlarda moderator. Moderatorning funksiyalari. Moderatorning shaxsiy sifatleri. Guruh bilan ishlash protsedurasi. Fokus-guruh bilan ishlash bosqichlari. Guruhli jarayonni boshqarish 15-Mavzu. Sotsiologik tadqiqotlarni kompyuter texnologiyalari dasturlari orqali tashkil qilish Uniforpm, SPSS, Survey CTO, DigSee Sure, Quizer (Kwizer) CATI, Data Analytics, Data Science, Big Data III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar <i>Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</i> 3-semestr (Sotsiologik tadqiqot metodologiyasi) 1. Sotsiologik tadqiqot uchun muammo tanlash 2. Sotsiologik tadqiqot rejasini tuzish 3. Sotsiologik tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilash 4. Sotsiologik tadqiqot dasturi tuzish 5. Dasturning metodologik qismini shakllantirish 4-semestr (Sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi) 1. Sotsiologik tadqiqotda gipotezalar 2. Turli mavzular bo'yicha tanlanma yig'indini shakllantirish talablari 3. Tadqiqotning asosiy tushunchalar talqini (Interpretatsiya) 4. Tadqiqot smetasini shakllantirish va hisob-kitob qilish	5. Birlamchi sotsiologik ma'lumotlarni to'plashning zamonaviy usullarining umumiy xususiyatlari 6. Kuzatish birlamchi sotsiologik ma'lumotlarni to'plash metodi sifatida 7. Sotsiologik tadqiqotlarda hujjatlarni tahlil qilish 5-semestr (Sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi) 1. Sotsiologik tadqiqotlarda miqdoriy metodlarni qo'llash 2. Birlamchi ma'lumotlarni to'plashda so'rov metodi 3. Anketa so'rovnomasi 4. Intervyu 5. Ekspert so'rovi 6. Sotsiologik tadqiqotlarda sifatli metodlarni qo'llash 7. Fokus guruhi metodi 8. Sotsiologik tadqiqotlarda sotsial psixologik metodlar. Sotsiometrik so'rov. Test 9. Sotsiologik eksperiment 10. Gazeta va jurnal maqolalari, internet ma'lumotlarini kontent-tahlil qilish 11. Biografik metod 12. Case Study yoyini 13. Rolli o'yinlar orqali moderatorlik ko'nikmalarini shakllantirish 14. Sotsiologik tadqiqotlarni kompyuter texnologiyalari dasturlari orqali tashkil qilish 15. Sotsiologik tadqiqot uchun tadqiqot platformasida ishlash 16. Sotsiologik tadqiqotda shkalalar. Sotsial yo'nalishlarni o'lchash metodlari IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar <i>Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</i> 3-semestr (Sotsiologik tadqiqot metodologiyasi) 1. Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi, texnikasi va protsedurasi 2. Sotsiologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari 3. Sotsiologik tadqiqotlarning turkumlanishi 4. Sotsiologiya tadqiqotlarda miqdoriy va sifatli strategiyalar 5. Sotsiologik tadqiqot dasturi 6. Sotsiologik tadqiqot dasturining tarkibiy elementlari 7. Sotsiologik tadqiqot muammosi va strategik rejasini asoslash 8. Sotsiologik tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad va vazifalarini belgilash 4-semestr (Sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi) 1. Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi, texnikasi va protsedurasi 2. Sotsiologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari 3. Sotsiologik tadqiqotlarning turkumlanishi 4. Sotsiologiya tadqiqotlarda miqdoriy va sifatli strategiyalar 5. Sotsiologik tadqiqot dasturi 6. Sotsiologik tadqiqot dasturining tarkibiy elementlari 7. Sotsiologik tadqiqot muammosi va strategik rejasini asoslash 8. Sotsiologik tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad va vazifalarini belgilash 5-semestr (Sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi) 1. Ma'lumotlar yig'ish metodlarining umumiy tasnifi 2. Hujjatlarni tahlil qilish metodi. Hujjatlarni tahlil qilish protsedurasi 3. Kontent-tahlil metodi 4. Kuzatish metodi 5. Kuzatishning tashkiliy protsedurasi 6. So'rov metodi 7. Anketa (so'rov varaqasi) orqali so'rov o'tkazish
--	---

8. Anketa (so'rov varaqa) tuzish 9. Pochta va telefon orqali so'rov o'tkazish 10. Ekspert-so'rovi 11. Intervyu sotsiologik so'rov metodi sifatida 12. Intervyu o'tkazish protsedurasi 13. Fokus-guruh metodi 14. Fokus-guruhlarni tashkil etish va o'tkazish 15. Sotsiologik tadqiqotlarni kompyuter texnologiyalari dasturlari orqali tashkil qilish V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar <i>Mustaqil ta'limni tashkil etishda fan xususiyatidan kelib chiqqan holda ma'ruza, amaliy seminar, laboratoriya mashg'ulotlari mavzularidan chetlashmagan holda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 30-maydagi 02/35-30/05-49-son xati bilan tavsiya etilgan "OTMlarda kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ta'limni tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Yo'riqnomasi"ning 5-bandiga asosan shakllantirildi.</i> Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 3-semestr 1. Sotsiologik tadqiqotlarning turkumlanishi 2. Ijtimoiy tadqiqotlar va sotsiologik tadqiqotlar: umumiylik va tafovut 3. Ilmiy so'rov belgilari 4. Tasodifiy va notasodifiy tanlov 5. Anketa so'rov varaqasi kompozitsiyasi 6. Dastur sotsiologik tadqiqotning asosiy xujjati sifatida 7. Dasturning nazariy-metodologik qismi 8. Sotsial muammoni tadqiqot muammosi sifatida konseptual asoslash 9. Intervyuda moderator startegiyesi 10. Tadqiqot maqsadi va vazifalarini belgilashda tadqiqot muammosini asoslash 11. Ekspress tadqiqot 12. Yuzma-yuz intervyu (face-to-face) 13. Kabinet so'rovlari (Desk Research) 14. Longitudinal tadqiqot 15. Miqdoriy va sifatli tadqiqot metodlari 4-semestr 1. VALS Survey so'rov varaqalari (online version) 2. Ekspert so'rov metodologiyasi 3. Nooldiy ekspertlar 4. Sotsiologiyaning xujjati manbalari 5. Sotsiodramaturgiya va etnometodologik eksperimentlar 6. Gipotezalarini ilgari surish protsedurasi 7. Tadqiqotning konseptual modeli 8. Shkalalarning umumiy tasnifi 9. Sotsial yo'nalishlarning amaliy sotsiologiya metodlari – shkalalar yordamida tadqiqot etish 10. V. Yadvonning shaxsiy dispositsiyalar tizimini tahlil qilishi.. 11. Tanlash metodini qo'llashning shartlari 12. Ehtimolli tanlash metodlari 13. Tanlov reprezentativligi 5-semestr 1. Kuzatishning tashkiliy protsedurasi 2. Action research 3. Sotsiometrik protseduralar 4. Gellap instituti	
--	--

5. Konsalting tashkilotlar 6. Sotsiologik tadqiqotning tashkiliy rejasi 7. So'rov metodi 8. Kontent analiz 9. Mazmun birliklarini loyihalashtirish usullari 10. Anketa so'rovning turli ko'rinishlari 11. Hujjatlar sotsiologik ma'lumotlarning eng muhim manbai sifatida 12. Ma'lumotlar yig'ish metodlarini umumiy tasnifi 13. Ikonoqrafik hujjatlar (kino-video va fotohujjatlar) 14. Hujjatlarni klassik tahlil qilish turlari 15. Kontent-analiz mohiyati, uning umumiy tavsifi 16. Kuzatish metodining mazmun mohiyati 17. Anketa savolnomasi 18. Pilotaj tadqiqotlar 19. Savollarning joylantirish mantiqi 20. Savolnoma: savolnoma tuzilishi, savol turlari 21. Sotsiologik tadqiqotning tashkiliy rejasi 22. Nuqtali va qayta tadqiqotlar 23. Operativ tadqiqotlar 24. Ideal va real tanlama yig'indi 25. Tanlama yig'indi pasportchikasi 26. Anketa so'rovnomada "ism effekti" 27. Sotsiologik tadqiqotlarda buyurtma va buyurtmachi 28. Fokus-guruhlarni shakllantirishning umumiy tamoyillari 29. Fokus-guruh ishtirokchilarni tanlash mezonlari 30. Fokus-guruhni tashkil qilish va intervyu tatib qoidalar 31. Sotsiologik tadqiqotlarni kompyuter texnologiyalari dasturlari orqali tashkil qilish 32. Tadqiqot platformalari 33. SPSS sotsiologik tadqiqotlar uchun Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar: 1. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va vazifasi topshiriqlarini bajarish; 2. Berilgan mavzular bo'yicha o'qituvchi rahbarligida ilmiy-ijodiy ishlanmalar tayyorlash; 3. Berilgan manbalar asosida tarjima ishlarini amalga oshirish; 4. Berilgan manbalar asosida portfolio tayyorlash; 5. Berilgan mavzular bo'yicha kurs ishini bajarish.	3. V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - empirik sotsiologik tadqiqotlar haqida nazariy va amaliy bilimlar, sotsiologik tadqiqotning metodologik asoslari, ijtimoiy va gumanitar fanlar nazariyalari va metodlari, tadqiqot konsepsiyasi haqida bilimga ega bo'lish. - sotsiologik nazariya va sotsiologik tadqiqot usullari haqidagi bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash; - mavjud ijtimoiy muammolarni o'rganish uchun sotsiologik tadqiqot usullaridan foydalanish; - ilmiy va amaliy tadqiqotlar faoliyatida ishtirok etishda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalardan foydalanish qobiliyati; - ijtimoiy muammolarni hal etishda mustaqil ravishda tadqiqot konsepsiyasini shakllantirish olish, tadqiqot tanlovini amalga oshirish, dala tadqiqotlarini tashkil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. «Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi va texnikasi» fanini o'zlashtirish natijasida talaba quyidagi kasbiy kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak:
---	---

	- qo'yilgan maqsadlarni mustaqil ravishda shakllantirish, sotsiologiya yo'nalishining turli sohalarida ilmiy tadqiqotlarning aniq vazifalarini belgilash va ularni eng yangi mahalliy va xorijiy tajribadan foydalangan holda, zamonaviy usullar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muammolarni hal qilish; - miqdoriy va sifatiy ma'lumotlar bilan ishlash, tashkiliy va boshqaruv qobiliyatlari, katta hajmdagi ma'lumotlardan muhim fikrlarni ajratib ko'rsatish qobiliyatlari, tahliliy fikrlash qobiliyati, izlanuvchanlik qobiliyati, nostandart qarorlar qabul qilish kompetensiyalariga ega bo'ladi.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: Referat - Muayyan ilmiy (o'quv-tadqiqot) mavzuni nazariy tahlil qilish natijalarining qisqacha yozma xulosasi bo'lgan talabning mustaqil ishi mahsuli, unda talaba o'rganilayotgan muammoning mohiyatini ochib beradi, shuningdek, mavzu bo'yicha o'z nuqtai nazarini izhor qiladi; Esse - qo'yilgan muammoning mohiyatini yozma ravishda ifodalash qobiliyatini baholash, tegishli fanning tushunchalari va analitik vositalaridan foydalangan holda ushbu muammoni mustaqil ravishda tahlil qilish va umumlashtiruvchi xulosalar chiqarish imkonini beradigan vosita; Individual yoki guruh loyihasi - bir qator o'quv va tadqiqot vazifalarini rejalashtirish va bajarish natijasida olingan yakuniy mahsulot. Analitik, tadqiqotchilik, amaliy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarning rivojlanish darajasini baholash imkonini beradi. Yakka tartibda yoki talabalar guruhi tomonidan bajarilishi mumkin Keys vazifa (inglizcha case — holat, vaziyat) amaliy muammoli vaziyatlar — muayyan hodisa yoki hodisalar ketma-ketligi bilan bog'liq bo'lgan holatlar tahliliga asoslangan o'qitish usuli. Talabadan berilgan muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan haqiqiy kasbiy yo'nalitirgan vaziyatni tushunish talab qiladigan muammoli vazifa. Keyslarning turlari: illyustrativ, tahliliy, qaror qabul qilish bilan bog'liq turlardan foydalanish maqsadga muvofiq; Ishtarining portfolio - Mavzu yoki modul doirasidagi muammoni hal qilishning maqsadlari, jarayoni va natijasi aks ettiruvchi talaba ishlarining maqsadli majmuasi; Infografika - axborot, aloqalar, raqamli ma'lumotlar va bilimlarning grafik tasviri; Multimedia tadqiqoti - multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv material, o'quv topshirig'i mazmunini taqdim etish; Tadqiqot-hisobot - ma'ruza tuzilishiga qarab mantiqiy o'zaro bog'langan bir nechta fragmentlar ko'rinishidagi ma'ruzaning multimedia tadqiqoti. Talabalarining samarali o'qitish tajribasi va o'quv jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash qobiliyati; Guruhlarda ishlash - talabalar guruhlariga bo'linib korxona, tashkilotning sotsial qiyofasi, muammoli vaziyatlari bo'yicha sotsiologik tadqiqot jarayonini tashkilotlashiradi, talabada jamiyat muammolari bo'yicha jamoaviy ishini tashkil qilish, jamoa a'zolarining birdamligi, ish jarayonini rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash, jamoa strategiyasi, analitik tahlil qobiliyatini shakllantiradi. Amaliy seminar mashg'ulotlari - talabalar fan doirasida amaliy mashg'ulotlarini, fan yuzasidan birlashtirilgan tashkilotlarda loyiha asosida ishlanmalarni to'plash va ushbu ishlanmalar asosida tadqiqot loyihasini bajaradi. VII. Talabalar kreditlarni olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan «Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi va texnikasi» fanidan 540 soat o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijodiy baholalanib kashfiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabaga 3,4, 5 - semestrlari uchun 18 kredit beriladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan kreditlar berilmaydi. Talabalarining bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim
5.	

muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.	
Talabalarining bilimni baholash mezonlari:	
Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi. O'quv rejada belgilangan 1 – 6 mavzular asosida birinchi oraliq nazorat ishi <i>yo'zma</i> shaklda o'tkaziladi. <i>Birinchi oraliq</i> nazorat ishi 3 tadan savollardan iborat variant asosida o'tkaziladi. <i>Ikkinchi oraliq</i> nazorat ishi talabalarining o'quv semestr davomida seminar mashg'ulotlari bo'yicha fanni o'zlashtirganlik baholari va qo'shimcha savollarga berilgan javoblar asosida umumlashtiriladi.	
Yakuniy nazorat 3, 4 semestr uchun yozma shaklda o'tkaziladi, 5 semestr uchun esa <i>taqdimot</i> tarzida o'tkaziladi.	
Yakuniy nazorat savol variantlari (namuna uchun)	
3 semestr	1 variant 1. Sotsiologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari 2. Sotsiologik tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilash 3. Sotsiologik tadqiqot dizayni
4-semestr	2 variant 1. Tadqiqot dasturida muammoni asoslashning xususiyatlari 2. Ikonoqrafik hujjatlar (kino-video va fotohujjatlar) 3. Fokus-guruhlarini shakllantirishning umumiy tamoyillari.
Yakuniy nazorat uchun 5 semestr uchun savol variant (namuna uchun)	
1.Ma'lumotlar yig'ish metodlarining umumiy tasnifi	
Amaliy vazifani uchun topshiriq: Tadqiqotning maqsad va vazifalariga ko'ra ma'lumotlar yig'ish metodlarini tanlash. Ma'lumotlar yig'ish metodlarini umumiy tasnifi. Adabiyotlar, hujjatlar, birlamchi ma'lumotlar tahlili. Aksiologik; biografik; kuzatish; ekspert baholash; so'rov; afzalliklarni bilish; kross-madaniy taqqoslash; monografik; juftliq taqqoslash metodlari.	
2.Sotsiologik tadqiqotda gipotezalar	
Amaliy vazifani uchun topshiriq: Gipotezalarni ilgari surish protsedurasi. Gipotezalar tasnifi. Tasviri, tushuntiruvchi, genetik gipotezalar. Gipotezalar tuzishga qo'yiladigan asosiy talablar. Tadqiqot gipotezasi bilan vazifalari o'rtasidagi o'zaro aloqa. Asoslanganlik, mantiqiy mutanosiblik va muqobilik tamoyillari. Asos-gipoteza va oqibat-gipoteza. Gipotezalarni tekshirishni rejalashtirish va uning keyingi tadqiqot protseduralarini ishlab chiqishdagi o'rnini	
3.Hujjatlarni tahlil qilish metodi	
Amaliy vazifani uchun topshiriq: Hujjatlar sotsiologik ma'lumotlarning eng muhim manbasi. Sotsiologiyada hujjat tushunchasi. Hujjatlar tasnifi: ma'lumotlarni qayd etilishiga ko'ra, ma'lumotlarni olish usuliga ko'ra; mualliflik xarakteriga ko'ra; ma'lumotlarga "yaqinlik" darajasiga ko'ra. Yozma hujjatlar: davlat va markaziy arxivlar; tashkilot va korxona arxivlari; hisobot statistikalari; ilmiy nashrlar; matbuot; shaxsiy hujjatlar; empirik ma'lumotlar arxivi. Ikonoqrafik hujjatlar (kino-video va fotohujjatlar). Fonetik hujjatlar. Sotsiologik tadqiqotlarda hujjatlarni tahlil qilish metodidan foydalanishning ustunlik va kamchilik tomonlari.	
Loyiha taqdimoti – talaba o'quv fani doirasida, semestr boshida ixtiyoriy tanlagan mavzu bo'yicha sotsiologik tadqiqot loyihasini bajaradi va ushbu loyihami yakuniy nazorat uchun belgilangan kunda fan o'qituvchisiga taqdimot qilib beradi.	
5(a'lo) baho - talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;	

6.	4 (yaxshi) baho - talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimlari amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda; 3 (qoniqarli) baho - talaba olgan bilimlari amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda; 2 (qoniqarsiz) baho - talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda baholar bilan baholanadi. Asosiy adabiyotlar 1. Xusanova X.T. Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasi. Electron o'quv qo'llanma. - Toshkent: O'zMU, 2025. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017. 2. Белановский С.А. Глубокое интервью. Уч. пособие. - Москва.: Никколо-Медиа, 2001. 3. Масленников Е.В. Экспертное знание: Интеграционный подход и его приложение в социологическом исследовании. - Москва., 2001. 4. Морено Дж. Социометрия: экспериментальный метод и наука об обществе. - Москва., 2001. 5. Добренко В. И. Кравченко А. И. Фундаментальная социология. Т.3. Методика и техника исследования. - М.:INFRA-M, 2009. - 768 б. 6. Горшков М.И. Прикладная социология: методология и методы. Учебное пособие. - М.:Альфа-М, 2011. - 416 б. 7. Ядов В.А. Стратегия социологического исследования. Описание, объяснение, понимание социальной реальности. - М.:Омега-Л, 2008. - 567 б Axborot manbaalari http://ziyo.net/ www.gallup.com
7.	Fan dasturi Universitet Kengashning 2025-yil ___-avgustdagi ___-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Kafedra mudiri:  Aslonov I. Alisher Navoiy nomidagi TDO TAU, «Psixologiya va sotsiologiya» kafedrasini mudiri, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
9.	Fan/modul uchun mas'ullar: Fayzieva F.  «Psixologiya va sotsiologiya» kafedrasini, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent Ebulfez Suleymanli.  Uskudar universiteti (Turkiya), sotsiologiya kafedrasini professori
10.	Taqrizchilar: Akramov X.F. Alisher Navoiy nomidagi TDO TAU, «Psixologiya va sotsiologiya» kafedrasini v.b. dotsent Xusanova X.T.  O'zMU «Sotsiologiya» kafedrasini dotsenti, sotsiologiya fanlari doktori (DSc)

Turkiyada joylashgan Uskudar universiteti (**Uskudar University**) nomli OTM (**QS Europe** reytingida 69 o'rinda, **QS EECA** reytingida 350 o'rinda, **BMT**ning Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha ham yuqori ko'rsatkichlarga ega) ta'lim dasturlari tahlil qilindi. <https://www.studyu.org/ru/university/uskudar/>
Sillabus Turkiyaning Stambul shahrida joylashgan Uskudar universiteti, sotsiologiya kafedrasini professori Ebulfez Suleymanli bilan hamkorlikda ishlab chiqildi va fanning ma'ruza va seminar dasturlarini ushbu universitetning "Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasi" fan dasturidagi mavzular asosida hamkorlikda ishlab chiqildi.

University Rankings 2025: 40 (o'rinda). **QS World University Rankings** 2026: 42- (dunyo bo'yicha o'mi) (**QS World University Rankings by Subject**): <https://www.topuniversities.com/universities/university-queensland>